



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TABIAT RESURSLARI VAZIRINING BUYRUG‘I

### Inson resurslarini boshqarish xizmati xodimlarining malakasini oshirishni tashkil etish to‘g‘risida

Mehnatga oid munosabatlarni va ular bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish, xususan, mazkur sohada mutaxassislar malakasini oshirish maqsadida,

#### BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Yuristlar malakasini oshirish markazining 2023-yil 8-fevraldagi 09-72/11-son taklif xati ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Yuristlar malakasini oshirish markazi tomonidan 2023-yil 1-maydan tashkil etilayotgan yangi tahrirdagi Mehnat kodeksiga asosan xodimlarning mehnat munosabatlarini tartibga solish, kasbiy sifatlarini rivojlantirish hamda mehnat huquqlarini himoya qilishni tashkil etish bilan bog‘liq muhim masalalar va yangiliklar yuzasidan “Yangi mehnat kodeksini o‘rganish” o‘quv kursida (ilovadagi 30 soatlik o‘quv dasturi asosida) Tabiat resurslari vazirligi markaziy apparati huzuridagi O‘rmon xo‘jaligi agentligi, Gidrometeorologiya xizmati agentligi hamda vazirlikning va hududiy bo‘linmalaridan ishtirok etuvchi inson resurslarini boshqarish xizmati xodimlarining ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. **Moliya-iqtisod bo‘limi** (Mamasoliyev) o‘quv kursida Tabiat resurslari vazirligi markaziy apparati va hududiy bo‘linmalari ishtirok etuvchi xodimlarining malakasini oshirish va ularning xizmat safari bilan bog‘liq xarajatlarni Tabiat resurslari vazirligining Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanishini ta‘minlasin.

4. O‘rmon xo‘jaligi agentligi va Gidrometeorologiya xizmati agentligi rahbarlari o‘quv kursida ishtirok etuvchi xodimlarning malakasini oshirish bilan bog‘liq xarajatlarni o‘z hisobidan moliyalashtirishi belgilab qo‘yilsin.

5. O'rmon xo'jaligi agentligi, Hidrometeorologiya xizmati agentligi va Tabiat resurslari vazirligining hududiy bo'linmalari rahbarlari o'quv kursiga jalb etilayotgan inson resurslarini boshqarish xizmati xodimlarining malakasini oshirish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratib bersin.

6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir

A.Abduxakimov

2023-yil "24" - aprel  
104 - son



Islig'e to'g'ri  
R. Yuldashov

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi  
Yuristlar malakasini oshirish markazida Inson resurslarini boshqarish  
yo‘nalishida malaka oshirish kursida ishtirok etuvchi tinglovchi xodimlar  
RO‘YHATI**

<b>№</b>	<b>Tashkilot nomi</b>	<b>F.I.Sh.</b>	<b>Lavozimi</b>
1.	Tabiat resurslari vazirligi	Ashirova Dilfuza Ibroximovna	Inson resurslarini boshqarish bo‘limi boshlig‘i
2.	O‘rmon xo‘jaligi agentligi	Xolmatov Komoliddin Xayrillayevich	Inson resurslarini boshqarish bo‘limi boshlig‘i
3.	Gidrometeorologiya xizmati agentligi	Ibragimova Shoira Atxamovna	Inson resurslarini boshqarish bo‘limi boshlig‘i
4.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Jolimov Baxadir Joldasbayevich	Inson resurslarini boshqarish bo‘yicha bosh mutaxassis
5.	Andijon viloyati	Pattayev Shoxruxbek Ravshanovich	Inson resurslarini boshqarish bo‘yicha bosh mutaxassis
6.	Buxoro viloyati	Mirzayeva Hulkar Barotovna	Inson resurslarini boshqarish bo‘yicha bosh mutaxassis
7.	Jizzax viloyati	Yusupova Zulfiya Kenjaboyevna	Inson resurslarini boshqarish bo‘yicha bosh mutaxassis
8.	Qashqadaryo viloyati	Ernazarov Zafar Boynazarovich	Inson resurslarini boshqarish bo‘yicha bosh mutaxassisi
9.	Navoiy viloyati	Ismailova Kamola Zokirjonovna	Inson resurslarini boshqarish bo‘yicha bosh mutaxassis
10.	Namangan viloyati	Turaliyeva Sohiba Yuldashaliyevna	Inson resurslarini boshqarish bo‘yicha bosh mutaxassis
11.	Samarqand viloyati	Kurbanov Baxodir Raxmonkulovich	Inson resurslarini boshqarish bo‘yicha bosh mutaxassis
12.	Surxondaryo viloyati	Djurayeva Normxol Amirovna	Inson resurslarini boshqarish bo‘yicha bosh mutaxassis
13.	Sirdaryo viloyati	Shukurova Marg‘uba Jumabayevna	Inson resurslarini boshqarish bo‘yicha bosh mutaxassis
14.	Toshkent viloyati	Yuldasheva Dilnoza Abdulakimovna	Inson resurslarini boshqarish bo‘yicha bosh mutaxassis
15.	Farg‘ona viloyati	Zoxidov Abduljalol Anvarovich	Inson resurslarini boshqarish bo‘yicha bosh mutaxassis
16.	Xorazm viloyati	Kalandarova Sumbuljan Boltayevna	Inson resurslarini boshqarish bo‘yicha bosh mutaxassis
17.	Toshkent shahri	Esanova Madina Malik qizi	Inson resurslarini boshqarish bo‘yicha bosh mutaxassis v.v.b

## “YANGI MEHNAT KODEKSINI O‘RGANISH” KURSINING O‘QUV DASTURI

### MODULNING MAVZULAR REJASI

№	Modul va mavzular nomi	O‘quv mashg‘uloti (seminar- trening)	Jami
<b>O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YANGI MEHNAT KODEKSINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI</b>			
1	Yangi mehnat kodeksining qabul qilish zarurati va alohida jihatlari	2	2
2	Xodimlarning mehnat huquqlarini ta‘minlashda kasaba uyushmalarining ishtirokiga oid yangiliklar	2	2
3	Mehnat sohasidagi ishtimoiy sherikchilik	2	2
4	Mehnat shartnomasiga oid yangi mexanizmlar va ularning ahamiyati	6	6
5	Ish vaqti, ishdagi tanafuslarga oid yangiliklar	2	2
6	Tatillar to‘g‘risidagi umumiy qoidalarning yangi jihatlari	2	2
7	Mehnatga haq to‘lash, mehnatni normallashtirish masalalari sohasidagi yangiliklar	2	2
8	Mehnat intizomi, xizmat tekshiruviga oid yangiliklar	4	4
9	Kafolatli va kompensatsiya to‘lovlarini amalga oshirishga oid yangiliklar	2	2
10	Taraflarning moddiy javobgarligi masalalariga oid yangiliklar	2	2
11	Ayrim toifadagi xodimlar mehnatini huquqiy tartibga solishning zarurati va yangi talablar	2	2
12	Mehnat nizolarini ko‘rib chiqishga oid yangiliklar	2	2
	<b>JAMI:</b>	<b>30</b>	<b>30</b>

#### **Izoh:**

1. “Yangi mehnat kodeksini o‘rganish” bo‘yicha malaka oshirish kurslari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazida an‘anaviy yoki masofaviy (onlayn) shaklda tashkil etiladi.

2. Buyurtmachi tashkilot malaka oshirishi mo‘ljallanayotgan rahbar va mas‘ul xodimlarining ro‘yxatni shakllantirib, Yuristlar malakasini oshirish markaziga taqdim qiladi.

3. Malaka oshirish kurslari shartnoma asosida pullik amalga oshiriladi. 1 nafar tinglovchi uchun o‘quv kursining (30 soatlik) o‘qish xarajati – 630 000 (olti yuz o‘ttiz ming) so‘mni tashkil etadi.

4. Buyurtmachi tashkilot o‘quv kursini tashkil qilish bo‘yicha mas‘ul xodimni Yuristlar malakasini oshirish markazi bilan hamkorlik qilishini tashkil qiladi.

5. Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi o‘quv kursining mavzulari bo‘yicha tegishli o‘quv kontentlarini (ma‘ruza matni, taqdimot-slayd va h.k.) tayyorlanishini va tinglovchilarga taqdim etilishini ta‘minlaydi.

6. Malaka oshirish kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan tinglovchilarga belgilangan namunadagi sertifikat beriladi.